
EHTIYOJMAND OILALAR HOLIDAN XABAR OLINDI

Yangi yil bayrami arafasida Toshloq tumani hokimi Abduqaxxor Djurabayev hamda tuman prokurori Axrorjon Xudoyberganovlar tumandagi yagona boquvchilari xorijda mehnat qilayotgan vatandoshlarimiz oilalari hamda muhtoj oilalar xonadonlarida bo'lib, xolidan xabar olmoqdalar.

Bugun Xonaqa, Obisiyo, Do'stlik, Sadda hamda Qo'rg'oncha MFYlarda boquvchilari xorijda mehnat qilayotgan ehtiyojmand oilalar hamda nuroniylarning xonadonlarida bo'lib, Yangi yil sovg'alari, oziq-ovqat mahsulotlari hamda bir martalik moddiy yordam mablag'lari topshirildi.

2022-12-30 18:04:45